

AYITida yangi izlanish



"O'zavtoyo'l" AK tizimidagi Avtomobil yo'llari ilmiytadqiqot institutida bugungi kunda ko'plab ilmiy ixtiolar va tadqiqotlar ustida ish olib borilmoqda. Ulardan biri – zamonaviy yangi tadqiqot texnologiyasidir.

Gap shundaki, mazkur texnologiyani xarid qilish va uni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali Toshkent hamda Farg'ona vodiysi viloyatlarining 376 km uzunlikdagi mintaqaviy avtomobil yo'llarining holatini diagnostika qilish va kadastrdan o'tkazish, ularning ta'mirida ishlatiladigan xomashyolarni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish va keyinchalik ularni ishlab chiqarishga joriy etish mumkin.



Mazkur loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekistondagi avtomobil yo'llari ta'miri ustidan texnik boshqaruvni yaxshilash hamda Respublika hududlaridagi yo'llarning holatini oldindan bilib, faoliyatni ushbu maqsadlarga yo'naltirishdir.



Institut rahbari O.Ziyaevning fikricha, yangi texnologiya amaliyotga joriy etilsa, bir tomonidan, yo'llardagi qurilish ishlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi, boshqa tomonidan esa, mazkur ishlarni yuqori texnologiyalar vositasida zamonaviy usullar yordamida dasturlashtirish va rejalashtirishda ushbu yangi uskuna qo'l kelishi mumkin.

"O'zavtoyo'l" AK Matbuot xizmati